Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: 378.147:001.89
ORCID: 0009-0001-7017-567X

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA SANITARIYA-GIGIYENA NAZORATINING TALABALARNING SOG'LIG'IGA TA'SIRI

Usmonova Shaxzoda
Termiz davlat pedagogika instituti
Jismoniy kafedrasi o`qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida sanitariya va gigiyena qoidalariga rioya etish darajasi, mavjud infratuzilmaning holati va ularning talaba yoshidagi shaxslar salomatligiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, o'quv binolari, yotoqxona, oshxona va o'quv auditoriyalaridagi sanitariya-gigiyena nazorati holati, ularning mikroiqlimi, tozaligi, ventilyatsiyasi va suv ta'minoti jihatidan o'rganiladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va milliy gigiyena standartlariga asoslangan baholash usullaridan foydalanilib, sog'lom ta'lim muhiti yaratish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

1. Tadqiqot maqsadi. Tadqiqotning maqsadi – oliy ta'lim muassasalarida sanitariya-gigiyena nazoratining holatini baholash, uning talabalarning sog'lig'iga ta'sir darajasini aniqlash va sog'lom ta'lim muhiti yaratish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

2. Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda nazariy-tahliliy yondashuv, so'rovnoma, kuzatuv va xalqaro standartlarga asoslangan taqqosloviy tahlil metodlari qo'llanildi. Statistik tahlil SPSS dasturi yordamida amalga oshirildi.

3. Tadqiqot natijalari. Olib borilgan kuzatuvlar va so'rovnomalar natijasida OTMlardagi sanitariya holati JSST standartlariga to'liq mos emasligi aniqlandi. Talabalar yotoqxonalaridagi ventilyatsiya, suv ta'minoti va tozalikda kamchiliklar mavjud bo'lib, bu kasallanish ko'rsatkichlarining ortishiga olib kelmoqda.

4. Xulosalar. Oliy ta'lim muassasalarida sog'lom ta'lim muhiti yaratish uchun sanitariya-gigiyena nazoratini kuchaytirish, infratuzilmani yaxshilash va xodimlar malakasini oshirish zarur. Gigiyenik muhitni muntazam monitoring qilish va talabalar salomatligi bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni tizimli amalga oshirish lozim.

Kalit so`zlar: oliy ta'lim, gigiyena nazorati, sanitariya, talabalar sog'ligi, yotoqxona gigiyenasi, sog'lom ta'lim muhiti, mikroiqlim

ВЛИЯНИЕ САНИТАРНО-ГИГИЕНИЧЕСКОГО КОНТРОЛЯ В УЧРЕЖДЕНИЯХ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ЗДОРОВЬЕ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В статье рассматривается уровень соблюдения санитарно-гигиенических норм в учреждениях высшего образования, текущее состояние инфраструктуры и их влияние на здоровье студентов. Анализируются санитарные условия в учебных корпусах, общежитиях, столовых и аудиториях с точки зрения чистоты, вентиляции, водоснабжения и микроклимата. С использованием методик оценки, основанных на рекомендациях ВОЗ и национальных стандартов, вырабатываются научно-практические предложения по формированию здоровой образовательной среды.

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

1. Цель исследования. Цель исследования – оценить состояние санитарно-гигиенического контроля в учреждениях высшего образования, выявить степень его влияния на здоровье студентов и разработать научно-практические рекомендации по формированию здоровой образовательной среды.

2. Методы исследования. В исследовании использовались теоретико-аналитический подход, анкетирование, наблюдение и сравнительный анализ на основе международных стандартов. Статистическая обработка данных проводилась с использованием программы SPSS.

3. Результаты исследования. Результаты наблюдений и анкетирования показали, что санитарное состояние вузов не полностью соответствует стандартам ВОЗ. В общежитиях студентов выявлены недостатки в вентиляции, водоснабжении и чистоте, что способствует росту заболеваемости.

4. Выводы. Для формирования здоровой образовательной среды в вузах необходимо усилить санитарно-гигиенический контроль, улучшить инфраструктуру и повысить квалификацию персонала. Необходимо регулярное гигиеническое мониторирование и системная реализация профилактических мероприятий по охране здоровья студентов.

Ключевые слова: высшее образование, гигиенический контроль, санитария, здоровье студентов, гигиена общежитий, образовательная среда, микроклимат

THE IMPACT OF SANITARY AND HYGIENE CONTROL IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ON STUDENTS' HEALTH

Abstract. This article examines the level of compliance with sanitary and hygiene regulations in higher education institutions, the state of campus infrastructure, and their impact on students' health. It analyzes sanitary conditions in academic buildings, dormitories, cafeterias, and classrooms in terms of cleanliness, ventilation, water supply, and microclimate. Using assessment methods based on WHO guidelines and national hygiene standards, the study presents scientific and practical recommendations for promoting a healthy educational environment.

1. Purpose of the study. The purpose of the study is to assess the state of sanitary and hygiene control in higher education institutions, determine its impact on student health, and develop scientific-practical recommendations for creating a healthy educational environment.

2. Research methods. The study employed theoretical analysis, surveys, observation, and comparative analysis based on international standards. Statistical analysis was conducted using the SPSS software.

3. Research results. Observations and survey results revealed that hygiene conditions in universities do not fully meet WHO standards. Deficiencies in ventilation, water supply, and cleanliness in dormitories contribute to increased rates of illness among students.

4. Conclusions. To ensure a healthy educational environment in universities, it is essential to strengthen sanitary and hygiene control, improve infrastructure, and enhance staff qualifications. Regular hygiene monitoring and systematic implementation of student health prevention measures are required.

Keywords: higher education, hygiene control, sanitation, student health, dormitory hygiene, learning environment, microclimate

KIRISH. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlashda sanitariya-gigiyena nazoratining o'rni beqiyosdir. Talaba yoshlari hayotining asosiy qismi ta'lim dargohlarida, ayniqsa auditoriyalar, yotoqxonalar va

oshxonalar kabi umumiy foydalaniladigan joylarda o‘tadi. Ayni shu joylarda tozalik, mikroiqlim, ventilyatsiya, yoritish va suv ta’minoti kabi sanitariya-gigiyena omillari talab darajasida bo‘lmasa, bu holat yoshlarning sog‘lig‘iga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xavf tug‘diradi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, talabalarning 20–25 foizi ta’lim olish jarayonida infeksion yoki somatik kasalliklarga chalinish xavfi yuqori bo‘lgan muhitda tahsil oladi, bu esa nafaqat jismoniy holatga, balki o‘quv samaradorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi [1].

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda oliy ta’lim sohasida islohotlar bilan birga, sanitariya-gigiyena me’yorlariga bo‘lgan e’tibor ham ortib bormoqda. Biroq amaliyotda oliy ta’lim muassasalarining aksariyatida sanitariya holatining tahlili u qadar muntazam emas, shuningdek, mavjud nazorat tizimi yetarli darajada integratsiyalashmagan. Jumladan, yotoqxonalarda sanitariya talablariga to‘liq amal qilinmasligi, suv ta’minoti va yuvinish joylaridagi gigiyena vositalarining muntazam ta’minlanmasligi, oshxonalarda ovqat tayyorlash texnologiyalarining buzilishi kabi holatlar talabalar salomatligida bir qator xavf omillarini yuzaga keltiradi [2].

Shu sababli, sanitariya-gigiyena holatini tizimli nazorat qilish, ularning sog‘liqqa ta’sirini ilmiy asosda baholash, xalqaro standartlarga mos yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratga aylandi. Ma’lumki, yoshlarning sog‘lomligi bevosita sog‘lom ta’lim muhiti bilan chambarchas bog‘liqdir. Sog‘lom o‘quv muhiti esa nafaqat infektsiyalarni oldini oladi, balki talabalarning psixoemotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va bilimni o‘zlashtirish darajasiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O‘zbekiston gigiyena fanining rivojlanishida bir qator olimlar va mutaxassislar muhim hissa qo‘shgan. Ularning asarlari oliy ta’lim muassasalarida sanitariya-gigiyena nazoratini tashkil etish va talabalarning sog‘lig‘ini saqlash bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni taklif etadi.

B.E. Tuxtarov tomonidan yozilgan “Gigiyena va tibbiy ekologiya” nomli darslikda [1] gigiyena fanining asosiy tushunchalari, inson organizmiga tashqi muhit omillarining ta’siri, shuningdek, ta’lim muassasalarida sanitariya-gigiyena sharoitlarini baholash usullari keng yoritilgan. Muallif oliy ta’lim muassasalarida o‘quv binolari, yotoqxonalar va oshxonalarda gigiyenik me’yorlarga rioya etilishi bo‘yicha tavsiyalarni taqdim etadi.

N.I. Xodjayev va Z.K. Bulayev tomonidan tayyorlangan “Davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati mustaqillik-yillarida” nomli monografiyada [2] O‘zbekiston Respublikasida sanitariya-epidemiologiya xizmatining rivojlanish tarixi, uning oliy ta’lim muassasalaridagi faoliyati va talabalarning sog‘lig‘ini saqlashdagi o‘rni tahlil qilingan. Mualliflar sanitariya nazoratining samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqqan.

D.E. Zununova tomonidan yozilgan “Gigiyena va sanitariya” nomli o‘quv qo‘llanmada [3] gigiyena fanining nazariy asoslari bilan birga, ta’lim muassasalarida sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Muallif o‘quv binolari, yotoqxonalar va oshxonalarda gigiyenik me’yorlarga rioya etilishi bo‘yicha metodik yondashuvlarni taqdim etadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 20-avgustdagi 184-sonli qarori [4] ta’lim muassasalarida sog‘lom ovqatlanishni tashkil etish va sanitariya-gigiyena talablariga rioya etish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilaydi. Ushbu qarorda oshxona va bufetlarda oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta’minlash, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar mavjud.

Yuqoridagi adabiyotlar oliy ta’lim muassasalarida sanitariya-gigiyena nazoratini

tashkil etish va talabalarning sog‘lig‘ini saqlash bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni taklif etadi. Ularning tavsiyalari amaliyotda qo‘llanilishi ta’lim muassasalarida sog‘lom muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotda oliy ta’lim muassasalarida sanitariya-gigiyena sharoitlarining talabalarning sog‘lig‘iga ta’sirini baholash maqsadida kompleks nazariy va empirik yondashuvlar qo‘llanildi. Material sifatida Toshkent shahri va viloyatidagi bir nechta davlat oliy o‘quv yurtlarida 2022–2024-yillar oralig‘ida to‘plangan sanitariya holati bo‘yicha hisobotlar, talabalar salomatligi monitoringi, shuningdek Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST), UNICEF va O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologiya xizmati tomonidan chop etilgan gigiyena standartlari va ko‘rsatmalar asos qilib olindi.

Tadqiqot metodologiyasida quyidagi asosiy yondashuvlardan foydalanildi:

Nazariy-tahliliy yondashuv oliy ta’limda sanitariya-gigiyena me’yorlariga oid xalqaro va mahalliy normativ hujjatlar, sog‘liqni saqlash bo‘yicha ilmiy maqolalar, gigiyena faniga oid darslik va monografiyalar tahlil qilindi. Bu orqali nazariy asoslar tizimlashtirildi.

Kuzatuv va diagnostik tahlil bir qator OTMlarda o‘quv binolari, oshxona, yotoqxona, gigiyena xonalari holati, suv ta’minoti va ventilyatsiya tizimi bo‘yicha amaliy kuzatuvlar o‘tkazildi. Ular gigiyenik talablar asosida maxsus baholash mezonlari orqali tizimlashtirildi.

So‘rovnoma usuli 450 nafar talaba (I–IV bosqich) o‘rtasida sanitariya holatidan qoniqish darajasi, sog‘liq bilan bog‘liq muammolar va gigiyenik xatti-harakatlar bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazildi. Savollar infektsiyalar chastotasi, yotoqxona sharoitlari, shaxsiy tozalikka rioya qilish, oziq-ovqat sifati kabi mezonlarni o‘z ichiga oldi.

Taqqosloviy tahlil O‘zbekiston ta’lim muassasalaridagi holat JSST va Yevropa gigiyena standartlari asosida baholanib, qiyosiy jihatlari aniqlashtirildi. Bu orqali milliy tizimdagi muammoli nuqtalar aniqlanib, ularni yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqishga asos yaratildi.

So‘rov natijalari statistik jihatdan Excel va SPSS dasturlari yordamida tahlil qilindi. Chastota, foizlik taqsimot, bog‘liqlik va muvofiqlik ko‘rsatkichlari asosida yakuniy xulosalar chiqarildi. Tadqiqot ob’ekti sifatida 18 yoshdan 25 yoshgacha bo‘lgan talabalar qamrab olindi.

Shunday qilib, ushbu metodologik asos sanitariya-gigiyena holatining sog‘liqka ta’sirini ilmiy asosda aniqlash, real muammolarni statistik raqamlar bilan asoslash va takliflar ishlab chiqishga xizmat qildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqot davomida Toshkent shahri va viloyatidagi beshta oliy ta’lim muassasasida olib borilgan kuzatuv va so‘rovnomalar natijasida sanitariya-gigiyena sharoitlarining talabalarning sog‘lig‘iga bevosita ta’siri mavjudligi aniqlandi. Kuzatuvlar davomida 2022–2024-yillar oralig‘ida yig‘ilgan ma’lumotlar asosida auditoriyalar, oshxonalar, yotoqxonalar va umumiy foydalaniladigan gigiyena xonalarining holati tizimlashtirildi.

So‘rovnomada qatnashgan 450 nafar talabaning 62,4 foizi yotoqxonalardagi sanitariya holatidan qoniqmasligini bildirdi. Jumladan, ulardan 38,2 foizi hojatxona va yuvinish joylarida gigiyena vositalarining (sovun, qog‘oz, salfetka) muntazam mavjud emasligini qayd etdi. 44,7 foiz talabalar esa yotoqxona hududida havo aylanishi yomon, namlik yuqori bo‘lishi sababli tez-tez allergik reaksiyalar, nafas yo‘llari shamollashlari yoki teri kasalliklarini boshdan kechirishini aytdi.

Oshxona sharoitlariga kelganda, talabalarning 51,3 foizi taom sifatidan norozi bo‘lgan, ayniqsa mahsulotlarning saqlanishi va ishlov berilishi sanitariya talablariga javob bermasligini bildirgan. Shuningdek, ovqat

tayyorlanadigan joylarda 32,9 foiz holatda ochiq chivin to‘rlarining mavjud emasligi va jihozlarning eskirganligi aniqlangan. Bu holat JSST tavsiyalariga zid bo‘lib, infeksion kasalliklar xavfini oshiradi [1].

Auditoriya va dars xonalarining gigiyena holati ham tadqiqot e’tibor markazida bo‘ldi. 5 ta OTMdagi 24 ta sinfxonani o‘rganish davomida, ularning 70 foizida yoritish darajasi (lux o‘lchov birlikda) gigiyena normativlariga mos kelmasligi kuzatildi. Xususan, derazalarning kirish burchagi tor, chiroqlar eskirgan yoki kam quvvatli bo‘lgan. Bu talabalar diqqatining pasayishiga, ko‘z zo‘riqishiga olib kelishi mumkinligi aniqlangan [2].

Suv ta’minoti va ventilyatsiya tizimi bo‘yicha ham muammo kuzatilgan. Kuzatuvga jalb qilingan 5 ta OTMdan 3 tasida yuvinish joylarida suv harorati me’yordan past bo‘lishi, quvurlar orqali suv oqimi bosimi yetarli bo‘lmasligi sababli talabalar yuvinishni chetlab o‘tishga majbur bo‘lishi aniqlangan. Bundan tashqari, ventilyatsiya tizimining to‘liq ishlamasligi yoki mavjud emasligi dars xonalarida karbonat angidridning me’yordan yuqori ko‘rsatkichlarda saqlanishiga olib kelmoqda [3].

Tibbiy xizmat mavjudligi bo‘yicha so‘rovda qatnashgan talabalarning 58 foizi o‘z institutida tibbiy punkt mavjud bo‘lsa-da, unga murojaat qilish samarasiz yoki noqulay deb hisoblashlarini bildirgan. Ayniqsa, yotoqxonalarda tibbiy profilaktik ishlovlar (dezinfeksiya, kasalliklar bo‘yicha brifinglar) muntazam o‘tkazilmasligi qayd etilgan. Ushbu holat tibbiy-sanitariya profilaktikasining tizimli emasligini ko‘rsatadi.

Umumiy xulosa sifatida, yuqoridagi kuzatuv va statistik ma’lumotlar asosida talabalarning sog‘ligi bevosita ta’lim muassasalaridagi gigiyenik sharoitga bog‘liq ekani isbotlandi. JSST me’yorlariga ko‘ra, sog‘lom o‘quv muhiti gigiyenik tozalik, yoritish, ventilyatsiya, xavfsiz oziq-ovqat va toza suv bilan ta’minlangan muhitda shakllanishi lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, amaldagi sanitariya holati bu standartlarga to‘liq javob bermaydi va ko‘plab ta’lim muassasalarida gigiyenik muhit talab darajasida emas.

XULOSA. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida sanitariya-gigiyena holati talabalarning sog‘lig‘iga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘quv binolari, yotoqxona, oshxona va umumiy foydalaniladigan joylarda gigiyena me’yorlariga to‘liq rioya etilmasligi, ventilyatsiya tizimining samarasizligi, suv ta’minotidagi uzilishlar va shaxsiy tozalikka oid vositalarning yetishmovchiligi nafaqat infektsion, balki surunkali kasalliklarning ham ortishiga sabab bo‘lmoqda. Tadqiqotda aniqlangan muammolar JSST va milliy sanitariya standartlariga nisbatan mavjud tafovutlarni ochib berdi.

Mazkur muammolarning mavjudligi, avvalo, sanitariya-gigiyena nazorat tizimining etarli darajada ishlamasligi, infratuzilmaning eskirganligi va xodimlarning gigiyena bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega emasligi bilan bog‘liqdir. Talabalar o‘rtasida sog‘liq muammolari ortayotgan bir paytda, gigiyenik muhitni optimallashtirish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu holat sog‘lom o‘quv muhiti, o‘quv jarayonining samaradorligi va yoshlarning ijtimoiy-ruhiy farovonligi bilan uzviy bog‘liqdir.

Shu asosda quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- oliy ta’lim muassasalarida sanitariya-gigiyena bo‘yicha mustaqil monitoring tizimi yo‘lga qo‘yilishi va muntazam ravishda holat baholanishi zarur;

- yotoqxona, oshxona va gigiyena xonalarining me’yoriy holatini ta’minlash uchun alohida moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish lozim;

maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tizimlaridagi kabi, otmlarda ham gigiyenik madaniyatni - shakllantirishga qaratilgan

darslar, seminarlar va treninglar muntazam o'tkazilishi kerak;

- otm xodimlari, ayniqsa xizmat ko'rsatuvchi texnik va oshxona xodimlari uchun gigiyena bo'yicha majburiy malaka oshirish kurslari joriy etilishi lozim.;

- jsst va unicef tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro gigiyena standartlariga mos holda me'yoriy hujjatlarni yangilash va moslashtirish tavsiya etiladi;

- talabalar o'rtasida sog'liq monitoringi va emotsional farovonlikni baholovchi diagnostika tizimi yo'lga qo'yilishi zarur;

- oliy ta'lim tizimida gigiyenik yondashuvni faqat sanitariya masalasi emas, balki ta'lim sifatini belgilovchi ijtimoiy-psixologik mezon sifatida ko'rib chiqish kerak.

Umuman olganda, oliy ta'lim muassasalarida gigiyenik muhitni tizimli tashkil etish orqali nafaqat sog'lom avlodni shakllantirish, balki akademik samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 20-avgustdagi 184-sonli qarori. https://lex.uz/acts/-1672430

2. Тухтаров Б.Э. Гигиена ва тиббий экология. – Т.: Тиббиёт, 2023. – 240 б.https://e-library.sammu.uz

3. Ходжаев Н.И., Булаев З.К. Давлат санитария-эпидемиология хизмати мустақиллик йилларида. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2022. – 112 б.https://e-library.sammu.uz

4. Зунунова Д.Э. Гигиена ва санитария. – Гулистон: ГўлДУ нашриёти, 2023. – 168 б.https://portal.guldu.uz

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 20-avgustdagi "Ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlanishni tashkil etish va sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 184-sonli qarori. – https://lex.uz/acts/-1672430

6. World Health Organization. Water, sanitation and hygiene in schools: global baseline report 2018. – Geneva: WHO Press, 2018. – 56 p.https://www.who.int/publications/i/item/9789241515515

7. Anderson M., Smith R. Effects of lighting on learning performance in schools // Journal of Environmental Psychology. – 2019. – Vol. 64. – P. 73–81.

8. Karimova G. School hygiene and disease prevention in developing countries // International Journal of Public Health. – 2021. – Vol. 66. – P. 43–51

9. Xodjayev N.I., Bulayev Z.K. Davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati mustaqillik-yillarida. Samarqand: 2022.)

10. Zununova D.E. Gigiyena va sanitariya. Guliston: 2023.

11. Tuxtarov B.E. Gigiyena va tibbiy ekologiya. Toshkent: 2023.